

Abdullayeva Zarina Xakimjonovna
Xalqaro Nordik Universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Xalqaro Nordik universiteti
“Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasi” o’qituvchisi
Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARI BOSHQARUV USULLARI

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv usullari va ularning samarali ishlashidagi ahamiyati tahlil etilgan. Maktabgacha ta'limning sifatini oshirish uchun boshqaruv tizimlari va usullarining rolini o'rganish, ta'lim jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatishning muhim jihatlari ko'rib chiqilgan. Asosiy boshqaruv usullari: demokratik, avtoritar sistemali boshqaruv, kompyuter texnologiyalari va avtomatizatsiya, kreativ va innovatsion boshqaruv, maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv kabilariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu boshqaruv usullari har bir ta'lim tashkilotining o'ziga xos xususiyatlariga va ehtiyojlariga qarab qo'llanilishi kerak. Maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv va innovatsion yondoshuvlar bolalar ta'limini sifatli va zamonaviy usullar asosida rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'limda samarali boshqaruv tizimi yaratish, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

KALIT SO'ZLAR: Menejment, demokratik, avtoritar, innovatsion, avtomatizatsiya, ta'lim, pedagogika, jamoa, resurs, kollektiv, rahbar, motivatsiya, strategik, sifat, samara, monitoring, moslashuvchanlik, kooperativ, seminar, trening, budjet, infratuzilma, emotsional, hamkorlik, maqsad, boshqaruv, tizim.

ANNOTATION: This work analyzes management methods of preschool educational institutions and their importance for effective functioning. The role of management systems and methods in improving the quality of preschool education is examined, highlighting key aspects of influencing the educational process

effectively. Particular attention is given to primary management methods such as democratic and authoritarian system-based management, the use of computer technologies and automation, creative and innovative management, and goal-oriented management. These management methods should be applied according to the unique characteristics and needs of each educational institution. Goal-oriented management and innovative approaches contribute to the qualitative and modern development of children's education. Additionally, creating an effective management system in preschool education, strengthening collaboration with educators and parents, and influencing children's personal development can significantly improve the quality of education.

Keywords: Management, democratic, authoritarian, innovative, automation, education, pedagogy, team, resource, collective, leader, motivation, strategic, quality, efficiency, monitoring, flexibility, cooperative, seminar, training, budget, infrastructure, emotional, collaboration, goal, governance, system.

Аннотация: В данной работе анализируются методы управления дошкольными образовательными учреждениями и их значимость для эффективного функционирования. Рассматривается роль систем и методов управления в повышении качества дошкольного образования, выделяются ключевые аспекты эффективного влияния на образовательный процесс. Особое внимание уделяется основным методам управления: демократическому и авторитарному системному управлению, использованию компьютерных технологий и автоматизации, креативному и инновационному управлению, целенаправленному управлению. Эти методы управления должны применяться с учетом особенностей и потребностей каждого образовательного учреждения. Целенаправленное управление и инновационные подходы способствуют качественному и современному развитию детского образования. Кроме того, создание эффективной системы управления в дошкольном образовании, укрепление сотрудничества с

педагогами и родителями, а также влияние на личностное развитие детей могут существенно повысить качество образования.

Ключевые слова: Менеджмент, демократический, авторитарный, инновационный, автоматизация, образование, педагогика, команда, ресурс, коллектив, руководитель, мотивация, стратегический, качество, эффективность, мониторинг, гибкость, кооперативный, семинар, тренинг, бюджет, инфраструктура, эмоциональный, сотрудничество, цель, управление, система.

KIRISH: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning muhim jihatlaridan biri — boshqaruvs usullarining to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishidir. Har bir ta'lim tashkiloti o'ziga xos sharoitlarga ega bo'lgani sababli, boshqaruvda innovatsion yondoshuvlar, pedagoglar bilan samarali hamkorlik, bolalar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish zarur bo'ladi. Shu bois, boshqaruvs usullarini tahlil qilish va ularni samarali qo'llash maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Ushbu ishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan boshqaruv usullari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, samarali boshqaruvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yondoshuvlar tahlil qilinadi. Maqsad — boshqaruv usullarini tushunish va amaliyotda qo'llashning ahamiyatini ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirishga qanday hissa qo'shishini yoritishdir.

ASOSIY QISIM: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv usullari ta'lim sifatini oshirish, bolalarni rivojlantirish va ta'lim tashkilotining samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan turli metodlarni o'z ichiga oladi. Boshqaruv usullari tashkilotning ichki muhitini, resurslarni boshqarishni va pedagoglar bilan ishlashni yaxshilash uchun zarurdir.

Markazlashgan boshqaruv: Markazlashgan boshqaruvda barcha qarorlar yuqori darajali rahbarlar tomonidan qabul qilinadi. Bu usulda ta'lim tashkilotining

faoliyatini boshqarish uchun markaziy organlar mas'uldir, masalan, ta'lif vazirligi yoki hududiy ta'lif boshqarmalari.

Bu modelda: Qarorlar yagona standartlarga asoslanadi. Resurslar va budgetlar markazdan taqsimlanadi. Tashkilotning faoliyati va monitoringi nazorat qilinadi.

Boshqaruvda maktabgacha ta'lif tashkilotlari o'z faoliyatini mustaqil ravishda olib boradilar, ya'ni qarorlar o'zaro kelishuv asosida va tashkilot darajasida qabul qilinadi.

Bu usulda: Maktabgacha ta'lif tashkiloti o'z resurslarini boshqaradi. Pedagoglar va boshqa xodimlar tashkilotning boshqaruvi haqidagi masalalarda, yeg'ilishlarda ishtirok etadilar. Tashkilotda moslashuvchanlik va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

Demokratik boshqaruv: Demokratik boshqaruvda qarorlar kollektiv tarzda qabul qilinadi, barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu boshqaruv usulida: Pedagoglar, ota-onalar va boshqaruvchilar o'rtasida muntazam va ochiq muloqot o'rnatiladi. Tashkilotning har bir a'zosi o'zining fikrini bildirish va qarorlar jarayonida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Qarorlar jamoa fikri asosida qabul qilinadi.

Xizmat boshqaruvi: Xizmat boshqaruvi rahbarning bolalarga xizmat qilishga, pedagoglarni qo'llab-quvvatlashga va jamoaning ehtiyojlarini qondirishga intilishiga asoslanadi.

Bu boshqaruvda rahbar: Pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Rahbarning roli, rahbarlik qilishdan ko'ra, pedagoglarni, bolalarni va xodimlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Pedagoglarni rivojlantirishga, motivatsiyasini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Strategik boshqaruv: Strategik boshqaruvda maktabgacha ta'lif tashkilotining uzoq muddatli maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlari rejalashtiriladi.

Bu usulda: Maktabgacha ta'lim tizimi uchun umumiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Tashkilot o'zining resurslarini va imkoniyatlarini tahlil qilib, maqsadlariga erishish yo'llarini belgilaydi. Bolalarning ehtiyojlari va jamiyatning talablariga mos ravishda yangilanish va takomillashuv rejalarini amalga oshiriladi.

Inson resurslarini boshqarish: Inson resurslarini boshqarish usuli ta'lim tashkilotining xodimlarini tanlash, tayyorlash va motivatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Bu usulda: Pedagoglar va boshqa xodimlar malakasini oshirish, ularni doimiy ravishda o'qitish va rivojlantirish. Xodimlarning ishlash motivatsiyasini oshirish va ularni rag'batlantirish. Pedagoglar va hodimlarni sifatli va samarali ishlashga undash uchun samarali tizimlarni yaratish.

Monitoring va baholash: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish uchun muntazam monitoring va baholash tizimi joriy etiladi.

Bu usulda: Ta'lim jarayonining samaradorligi va tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi muntazam baholanadi. Pedagoglarning faoliyati va ta'lim dasturlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tashkilotning umumiy faoliyati va resurslar taqsimoti nazorat qilinadi.

Kooperativ boshqaruva: Kooperativ boshqaruvdagi ta'lim tashkilotining barcha a'zolari, shu jumladan pedagoglar, ota-onalar va boshqaruvchilar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatiladi.

Bu usulda: Pedagogik jamoa o'rtasida kooperatsiya va hamjihatlik yaratiladi. Pedagoglar va xodimlar o'zaro fikr almashish, tajriba o'rtoqlashish va maslahatlashishda faol ishtirok etadilar. Tashkilotda birgalikda qarorlar qabul qilinadi va hamkorlikda ishlashga alohida ahamiyat beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini samarali boshqarish uchun rahbarga bir nechta muhim maslahatlar berish mumkin. Bu maslahatlar rahbarning ish samaradorligini oshirishga, bolalarga sifatli ta'lim berishga va umumiy boshqaruvni yaxshilashga yordam beradi.

Ochiq va samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'ying: Rahbar sifatida, pedagoglar, xodimlar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ochiq va samarali aloqalarni o'rnatning. Bu, tashkilot ichidagi ishonchni oshiradi va muammolarni tezda aniqlashga yordam beradi.

Muntazam uchrashuvlar: Pedagoglar bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazib, ularning fikrlarini tinglash, muammolarni hal qilish va ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha maslahatlar berish. Bolalardan, ota-onalardan va xodimlardan muntazam ravishda fikr-mulohazalar olib, ta'lim va boshqaruvni doimiy ravishda takomillashtirib boring.

Rahbar sifatida motivatsiya va qo'llab-quvvatlashni kuchaytiring:
Xodimlarni motivatsiya qilish: Pedagoglar va xodimlarga rag'batlar taqdim eting. Ularning mehnatini qadrlang, mukofotlash tizimini yaratib, samarali ishni taqdirlab boring.

Kasbiy rivojlanish: Pedagoglarni malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglarga jalb qiling. Ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash orqali umumiyligi ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Emotsional qo'llab-quvvatlash: Pedagoglarning emotsional holatini nazorat qilish, stress va charchoqni kamaytirish uchun zarur qo'llab-quvvatlashni taqdim eting.

Moliyaviy boshqaruv: Maktabgacha ta'lim tashkilotining budgetini samarali boshqarish, mablag'larni oqilona taqsimlash va zarur resurslarga yo'naltirish.

Infratuzilma: Ta'lim jarayonini yaxshilash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotning inshootlarini va materiallarni yangilab boring. Xavfsizlik va salomatlikni ta'minlash muhimdir.

Texnologiyalardan foydalanish: Zamонавиъ texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, bolalarga interaktiv va innovatsion o'qitish usullarini taqdim etish.

Jamoani birlashtirish va hamkorlikni kuchaytirish: Pedagoglar va xodimlar o'rtasida jamoaviy ish muhitini yaratish. Ularni bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlik qilishga rag'batlantiring.

Ota-onalar bilan aloqalar: Ota-onalar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'ying. Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalg qilish va ularni o'z farzandlarining rivojlanishida faollikka undash.

Ta'lim dasturlarini yangilash: Yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni o'rganing va ulardan foydalaning. Bolalar uchun rivojlantiruvchi va qiziqarli darslar va faoliyatlarni tashkil eting. Har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olib, individual yondashuvni joriy eting. Bu orqali bolalarning barcha qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Sifatni baholash: Ta'limning sifatini muntazam ravishda baholab turing. Bolalarning bilim darajasini, pedagogik usullarni va umumiyligi faoliyatni kuzatib boring. Pedagoglarga va xodimlarga muntazam konstruktiv fikrlar bering. Ularni o'z ishlarini yaxshilashga undang va yordam bering.

Krizisga tayyor bo'ling: Bolalarning yoki xodimlarning salomatligi, xavfsizlik yoki boshqa favqulodda holatlar yuzaga kelganda, tezkor va samarali qarorlar qabul qilishga tayyor bo'ling.

Moslashuvchanlik: O'zgarishlarga moslashishga tayyor bo'ling. Yangi talablar, normativ hujjatlar yoki ta'lim metodlari o'zgorganida jamoa bilan tezda adaptatsiya bo'ling.

Yangiliklarga ochiq bo'ling: Ta'limda yangi texnologiyalar va metodlardan foydalanimish uchun yangiliklarga ochiq bo'ling. Innovatsion yondashuvlar, bolalarning qiziqishini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Hamkorlik va tarmoq: Maktabgacha ta'lim sohasidagi boshqa tashkilotlar, pedagoglar va mutaxassislar bilan hamkorlikni rivojlantiring. Boshqa tashkilotlar bilan tajriba almashish, yangi yondashuvlar va strategiyalarni o'rganish mumkin.

XULOSA: Shaxsiy rivojlanish, o'zini tahlil qilish, rahbar sifatida o'zingizni doimiy ravishda rivojlantirishga e'tibor qarating. Yangi bilimlar olish, menejment va pedagogika bo'yicha bilimlarni oshirish orqali samarali rahbar bo'lishga harakat qiling. Maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarish samarali bo'lishi uchun rahbar har doim jamoani ilhomlantirishi, pedagoglarni qo'llab-quvvatlashi va ta'lif sifatini oshirish uchun innovatsiyalarni joriy etishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xosiyat Xusniddinovna Aliyeva (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 3 (3), 316-319.
2. Davlatova H.D. (2020). TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA INNOVATSION YONDASHUV. Вестник науки, 2 (5 (26)), 6-8
3. Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi Xalqaro Nordik universiteti "Psixologiya va maktabgacha ta'lif kafedrasi" o'qituvchisi. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILTLARIDA RAHBAR ETIKASI VA ESTETIKASINING BOSHQARUVDAGI O'RNI. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564351>